

126. Tenglamalar

Yondosh mavzu:
O‘zbekiston sopolি.

Tenglama, noma'lum, ildiz.



1. Sxemalar bo'yicha tenglamalar yozing. Ularni yeching.

128

97

Laganlar

59

Ko'zalar

x

Tuvaklar

x


Choynaklar

48

2. Noma'lum kattalikni harf bilan belgilang va masalaga doir tenglama yozing.

Ustaxonada 42 ta piyolaga, piyolalardan 7 marta kam choynakka gul chizildi. Agar jami 87 ta sopol buyumga gul chizilganligi ma'lum bo'lsa, nechta laganga gul chizilgan?

3. Bo'yalgan sopol plitkalar yuzini toping.



4. Tenglamalarni yeching.

$$6 \cdot c = 42$$


$$k : 5 = 6$$

$$24 : t = 4$$



5. Jadvalni to'ldiring.

a	2	3	5	6	7	5	9
b	9	8	4	6	6	8	4
x							



6. Qisqa sharti bo'yicha masala tuzing. Uni tenglama yordamida yeching.

Sopol buyumlarga rasm chizish bo'yicha o'tkazilgan tanlovda ikkinchi sinf o'quvchilari qatnashishdi.

- 2- "A" – 25 o'quvchi
- 2- "B" – ?, 2 nafar ko'p o'quvchi
- 2- "D" – ?, 3 marta kam
- 2- "E" – x

90 nafar



7. x ning qiymatini toping.

$$420 + 124 + x = 600 \quad x - (142 + 323) = 200$$

$$x + (211 - 51) = 400 \quad 115 + x + 218 = 500$$



8. Do'konni ta'mirlash uchun 100 quti sopol plitka sotib olindi. Ulardan 27 qutisi ko'k rangdagi plitkalar, moviy rangli plitkalar ham shuncha, qolganlari sariq rangli plitkalar. Noma'lumni x bilan belgilab, tenglama tuzing va uni yeching.

127. Tenglamalar

Yondosh mavzu:

O'zbekiston gilamdo'zligi.

Tenglama, noma'lum,
ildiz.



1. Gilamdo'zlar uzunligi 6 m bo'lgan gilamni to'qimoqdalar. Ularga gilamning 26 detsimetriни to'qish ishi qoldi. Gilamning qanday qismi to'qib bo'lingan?



2. Masalalarga doir tenglamalar yozing va ularni yeching.

	Bor edi	→	284 metr ip
	Ishlatildi	→	x metr ip
	Qoldi	→	97 metr ip

	Bor edi	→	x g'altak
	Ishlatildi	→	54 g'altak
	Qoldi	→	96 g'altak

Masalalar nimasi bilan o'xshash va nimasi bilan farq qiladi?



3. Xatolarni toping.

42 soni yettidan olti marta kichik.

8 soni 40 dan beshta kam.

8 ni 8 ga ko'paytirsak, 16 hosil bo'ladi.

Agar 45 ni 9 ta kamaytirsak, 5 hosil bo'ladi.



4. Tenglamalarni yeching.

$$x - (141 + 123) = 245$$

$$(214 + 345) - x = 152$$

$$541 - x = 215$$

$$x - 612 = 321$$



5. Masalalarga doir ifodalar tuzing.

- a) Gilam fabrikasiga ertalab a g'altak, kechqurun yana b g'altak ip keltirildi. Hamma g'altaklar uchta sexga baravardan bo'lib berildi. Har bir sex nechta g'altak ip olgan?
- b) Gilamdo'zlar bitta gilamni a kunda, ikkinchi gilamni ikki marta ko'proq vaqtida to'qib tugatishdi. Bu ikki gilamni to'qish uchun jami necha kun sarflangan?



6. Uchbu shakllardan qaysi birini yasash mumkin? Shu shaklni daftaringizda yasang.

- a) Tomonlari 5 cm, 4 cm va 1 cm bo'lgan uchburchak.
- b) Bo'yisi 8 cm, eni esa bo'yidan 1 dm qisda bo'lgan to'g'ri to'rburchak.
- d) Tomoni 4 cm bo'lgan kvadrat.



7. Jadval bo'yicha masala tuzing.

	1 ta gilamning uzunligi	Gilamlar soni	Umumiy uzunligi
	5 metr	4	?
	?	4	20 metr
	5 metr	?	20 metr



8. Tenglamalarni yeching.

$$x - 452 = 540$$

$$x : 5 = 9$$

$$x + 284 = 351$$

$$x \cdot 4 = 36$$

$$840 - x = 256$$

$$72 : x = 9$$



9. Tenglama tuzib, masalani yeching.

Agar 8 nafar qizning har biri o'zi to'qigan 5 metrli gilamni bir-biriga ulasa, qanday uzunlikdagi gilam hosil bo'ladi.

128. Tenglamalar

Yondosh mavzu:

O'zbekistondagi avtomobillar.

Tenglama,
noma'lum, ildiz.



1. Har bir masalaga mos ifoda tanlang.

- Zavodda bir kunda 10 ta avtomobil yig'iladi. Ikki kunda nechta avtomobil yig'iladi?
- Zavodda bir kunda 10 ta avtomobil yig'iladi. 20 ta avtomobil necha kunda yig'iladi?
- Zavodda ikki kunda 20 ta avtomobil yig'iladi. Bir kunda nechta avtomobil yig'iladi?

Bunday masalalar qanday ataladi?

$$20 : 10 = 2$$

$$20 : 2 = 10$$

$$10 \cdot 2 = 20$$

2. Tenglamalarni yeching.

$$x \cdot 7 = 35$$

$$8 \cdot x = 48$$

$$x : 7 = 8$$

$$x \cdot 5 \cdot 2 = 40$$

Oxirgi tenglama nimasi bilan farq qiladi? Biz bu yerda qanday matematik qonunni qo'llay olamiz?

3. Tenglamalarni yeching.

$$x \cdot 8 = 56$$

$$a + 20 + 17 = 68$$

$$m + 24 : 6 = 19$$

$$7 \cdot y = 42$$

$$172 - 65 - t = 13$$

$$45 : 9 + n = 51$$

4. a) Bir qadoqda 8 ta vitamin bor. Beshta qadoqda shunday vitaminlardan nechta bo'ladi?
b) Bir qutida 10 qadoq vitamin bor. Shunday to'rtta qutida necha qadoq vitamin bo'ladi?



5. Jadval bo'yicha tenglama tuzing.

	Bitta avtomobildagi eshiklar soni	Avtomobillar soni	Barcha eshiklar
	4	5	x
	x	5	20
	4	x	20



6. $6 \cdot x = 18$ ekani ma'lum. 18 soni nimani anglatadi?

To'g'ri to'rtburchakning eni qanday?

Daftaringizga shunday to'g'ri
to'rtburchak chizing. Uning perimetrini
hisoblang.

6 cm



x cm



7. Hisoblang.

$$d \cdot 6 = 54$$

$$s : 9 = 9$$

$$x \cdot (45 - 44) = 13$$

$$(44 + 19) : y = 9$$

$$m \cdot 5 \cdot 3 = 15$$

$$n : (45 : 5) = 0$$



8. 16 nafar sayyoh avtomobillarda Chimyonga yo'l oldi. Agar jami 4 ta mashina va har bir mashinada bir xil miqdorda yo'lovchi bo'lgan bo'lsa, u holda har bir avtomobilda necha nafardan yo'lovchi bo'lgan?



9. Hisoblang.

$$346 + 258 + 129$$

$$814 - (351 + 265)$$

$$267 + 156 - 162$$

$$954 - 546 - 216$$

$$144 + (845 - 349)$$

$$915 - 456 + 127$$